



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



ANTROPONIMLARNING PRAGMATIK SATHDA O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

SOME REFLECTIONS ON THE PRAGMATIC STUDY OF ANTHROPONYMS

Otaxonova Sohiba Umidjon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sohibaotaxonova@gmail.com

90-737-66-14

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./MYAF7418](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./MYAF7418)

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi antroponimlarning dunyo tilshunosligida pragmatik aspektida o'rganilishi, uning nazariy asoslari va shaxs nomlarining amaliy tilshunoslikda o'rganilishiga hissa qo'shgan olimlar tadqiqotlari tahlil qilinadi. O'zbek tilshunosligida shaxs nomlarining lingvopragmatik sathda o'rganilishi uchun asos bo'luvchi faktlar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Antroponim, pragmatika, nominatsiya, diskurs, perlokutiv akt, kommunikativ maydon.*

Annotation. *This thesis analyzes the study of anthroponyms in the pragmatic aspect in world linguistics, its theoretical foundations, and the research of scholars who have contributed to the study of personal names in applied linguistics. In Uzbek linguistics, the facts that form the basis for the study of personal names at the linguopragmatic level are examined.*

Keywords: *Anthroponym, pragmatics, nomination, discourse, perlocutionary act, communicative field.*

Bugungi kunda yetakchi ilmiy markazlarda lingvistik madaniyat bilan bog'liq holda shaxsning hissiy va estetik baholarini ifodalovchi birliklarning milliy mentalitet, nutqiy faoliyat va madaniy kontekst bilan aloqadorligini o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniyatlararo muloqot jarayonida faollashadigan antroponimik ma'noning denotativ va konnotativ realizatsiyasiga ta'sir etuvchi pragmatolingvistik omillarni tahlil qilish globallashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois antroponimlarning diskursiv va pragmatik xususiyatlarini o'rganish hamda mazkur masalalar yuzasidan jahon ilmiy hamjamiyatini xabardor qilish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Antroponimlarning til va nutq jarayonida o'z referenti bilan munosabatidan kelib chiqadigan konnotativ ma'nolarning pragmatik



jihatlarni o‘rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar lingvistik muloqot doirasida insonlararo munosabatlarning ontologik mohiyatini hamda ularning lingvokognitiv mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. O‘zbek tilshunosligi ham til va nutq tizimlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda jahon tilshunosligining ilg‘or g‘oyalari tayangan holda tadqiq etish borasida muayyan tajriba to‘pladi. Antroponimiya hodisasi, antroponimlarning etimologik, milliy-madaniy xususiyatlari va semantik imkoniyatlarini o‘rganish antroponimlarning ijtimoiy belgi va lingvistik birlik sifatida o‘rnini mustahkamlashi bilan tilshunoslikda o‘zining chuqur tadqiqini kutayotgan yana bir masala ya’ni antroponimlarning lingvopragmatik tadqiqi diqqat markaziga ko‘tarildi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida atoqli otlar tarkibiga kiruvchi shaxs nomlari lingvopragmatik jihatdan to‘liq tahlil qilinmagan bo‘lsa ham bir qator pragmatikaga oid tadqiqotlarda antroponimlarning nutq elementi sifatidagi vazifalari haqida bildirilgan ilmiy izohlarni kuzatish mumkin.

Rus tilshunosligida murojaat-antroponimlarning lingvopragmatik tabiati oilaviy diskurs materialida maxsus tadqiq qilingan bo‘lib, ularda antroponimlar nominativ birlik sifatida emas, balki kommunikativ ta’sir va nutqiy munosabatlarni tartibga soluvchi pragmatik regulativlar sifatida talqin etiladi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda antroponimik murojaat shakllarining semantik va pragmatik komponentlari izchil ajratilib, ularning kommunikativ vaziyat parametrlari, diskursdagi o‘rni, shuningdek, strategik va taktik funksiyalari sinxron va diaxron kesimda yoritilgan. Mazkur ishlar antroponimlarning oilaviy muloqotda ijtimoiy masofa, emotsional holat hamda baholovchi munosabatni ifodalashdagi muhim lingvopragmatik imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib beradi [Нечерова, 1999: 395].

Rus olimasi E.Rubsovaning nomzodlik ishini antroponimlarning lingvopragmatik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar qatorida ko‘rsatish mumkin [Рубцова, 2006: 151].

Dissertatsiyada antroponimlar an’anaviy semantik-denotativ yondashuvdan chekinib, kommunikativ jarayonda aktualizatsiyalanuvchi lisoniy birlik sifatida talqin qilinadi. Antroponimlarning pragmatik mazmuni ijtimoiy, madaniy, tarixiy, emotsional va baholovchi konnotatsiyalar majmui sifatida izohlanib, ularning nutq vaziyatida qo‘shimcha axborot tashuvchi birlik ekanligi asoslanadi. Shuningdek, antroponimlarning nutq subyekt va adresat bilan bog‘liq holda aktualizatsiyalanishi ularning kommunikativ-pragmatik salohiyatini ochib beradi. Onimlar tahlili asosan umumiy konnotativ qatlam doirasida olib borilib, ularning aniq nutq aktlari, diskursiv strategiyalar va perlokutiv ta’sir mexanizmlari doirasidagi faoliyati yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat antroponimlarning lingvopragmatik imkoniyatlarini



milliy-madaniy va diskursiv kontekstda yanada chuqurroq tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

S.Garagulya tadqiqotida shaxsiy ism til va madaniyat doirasida pragmatik jihatdan belgilangan leksik birlik sifatida o'rganiladi. Tadqiqot shaxsiy ismning shakl o'zgarishi, ishlatilishi va funksiyalanishining diaxronik va sinxronik kontekstlarda turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi [Гарагуля, 2009: 418].

Shaxsiy ism avloddan-avlodga o'tib keladigan oilaviy ism(familiya)ga nisbatan farqli ravishda tug'ilish paytida shaxsga beriladi va u nomlash jarayonida madaniy-tarixiy, etnik, ijtimoiy, psixologik hamda subyektiv omillarni, shaxs va xalqning nom yaratish qobiliyatlari hamda an'analarni aks ettiradi. Tadqiqotchi shuni ta'kidlaydiki, shaxsiy ism kommunikativ vaziyatlarda eng ko'p ishlatiladigan leksik birliklardan biri bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va lingvistik shaxsning o'zaro aloqalari ismning variantlilik va funksional o'zgaruvchanligida namoyon bo'ladi. Dissertatsiya Qo'shma Shtatlar antroponimik tizimi va kommunikativ maydoni doirasida shaxsiy ismning o'rni va uning lingvopragmatik potentsialini o'rganadi.

E.Moskalenko tadqiqotida [Москаленко, 2012: 188] shaxs norasmiy nomlarining funksional-pragmatik xususiyatlarini rus va ingliz tillari materiallari asosida o'rganadi. Ishda norasmiy nomlashlar ijtimoiy-madaniy, stilistik va kommunikativ indikator sifatida talqin qilinib, ularning badiiy va kundalik diskursdagi konnotativ va baholovchi funksiyalari tahlil qilingan. V.Rajina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda [Ражина, 2007: 19] onomastik leksika nafaqat nominativ vazifani bajaruvchi birlik sifatida, balki madaniy xotira, fon axborot va ijtimoiy tajribani mujassamlashtiruvchi semiotik hodisa sifatida talqin qilinadi. Unda onimlarning lingvokulturologik shartlanganligi, ya'ni ularning milliy-madaniy kontekst bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi, onomastik birliklarning mazmuniy tuzilmasida fon bilim, tarixiy-assotsiativ qatlam va baholovchi komponentlar muhim o'rin egallashi ko'rsatiladi. Ayniqsa, onomastik realiyalar tushunchasi (muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar") [Vlakhov, 1980: 8] doirasida onimlarning madaniy identifikatsiya vositasi sifatidagi roli alohida e'tiborga olinadi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda onomastik leksikaning pragmatik imkoniyatlari masalasiga ham keng to'xtalib o'tilgan. Turli guruhdagi onimlarning kommunikativ vaziyatga bog'liq holda ta'sirchanlik, baholash, ideologik yo'naltirish va identitetni belgilash funksiyalarini bajarishi ko'rsatib berilgan. Onomastik birliklar ma'no tuzilmasidagi o'zgarishlar til va madaniyatlararo aloqalar jarayonida ayniqsa faollashishi, bu holat ularning semantik va pragmatik qayta talqin qilinishiga olib kelishi qayd etiladi.

O.V.Vrublevskaya o'z tadqiqotida til modasini faqat leksik yangilanishlar doirasida emas, balki onomastik makonning turli qatlamlarida namoyon bo'ladigan murakkab sotsiomadaniy hodisa sifatida izohlaydi [Врублевская, 2017: 430].

Tadqiqotda shaxs nomlari, taxalluslar, nikneymalar, shuningdek, reklama va urbanistik nomlanishlar misolida modaning nominativ jarayonlarga ta'siri keng yoritilgan. Muallif onomastik birliklarning modaga xos belgilarini – yangilik, ommaviylik, baholovchanlik va demonstrativlik kabi xususiyatlar orqali asoslaydi. Dissertatsiyada til modasi til ongida shakllanuvchi va nutqiy xulq-atvor bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa sifatida talqin qilinadi. Xususan, shaxs nomlarining tanlanishida ijtimoiy prestij, globallashuv, madaniy stereotiplar va kommunikativ maqsadlarning o'rni alohida ta'kidlanadi. Bu yondashuv onomastik birliklarning nafaqat nominativ, balki pragmatik va perlokutiv imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri – onomastik periferiyaning (sahna taxalluslari, nikneymalar, reklama nomlari va boshqalar) til modasining faol zonasi sifatida talqin qilinishidir. Muallif ushbu qatlamda modaning tezkor o'zgaruvchanligi va kommunikativ samaradorlikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu holat zamonaviy media diskursi va reklama matnlarida nom tanlash strategiyalarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, postmodern estetikasi va globallashuv jarayonlarining onomastik tizimga ta'siri tahlil qilinib, rus antroponimik formulasining transformatsiyasi modaning nutqiy xulq-atvor shakli sifatida izohlanadi. Bu qarashlar antroponimlarning zamonaviy kommunikativ makondagi funksional yukini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual yondashuvlar ushbu tadqiqot ishida ham nazariy asos sifatida qabul qilinadi.

A.Boykovaning tadqiqoti [Бойков, 2017: 182] shaxs nomining reflektiv talqini uning pragmatik funksiyasi bilan bevosita bog'lanadi. Ism tanlash va qo'llash jarayonida kommunikativ vaziyat, adresatga bo'lgan munosabat, shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya omillari muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi. Bu jihat shaxs nomlarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganishda til materiallarining yuqori metodologik salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, dissertatsiya shaxs nomlarini til refleksiyasi, baholovchi ong va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan tadqiq etishga muhim hissa qo'shadi. Ushbu ishda ilgari surilgan xulosalar antroponimlarning zamonaviy kommunikativ makondagi pragmatik imkoniyatlarini aniqlashda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbek tilshunsligida antroposentrik yo'nalishda bajarilgan muhim tadqiqotlardan biri D.Xudoyberganovanning nomzodlik ishida pretsedentlik birliklar



safida tilga olingan shaxs nomlarining matn anglashilishidagi o'rni, pretsedent nomlar badiiy matnda pragmatik maqsadlarda qo'llanilishi haqida fikrlar mavjud [Худайберганава, 2013: 91].

O'zbek pragmalingsvistikasiga salmoqli hissa qo'shgan olim M.Hakimov o'zining “O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari” asarida atoqli otlar va olmoshlarni deydik belgilar sifatida izohlab, ularning pragmatik funktsiya egaligi, matn ichida ma'lum nutq vaziyati bilan aloqador ma'no ottenkalari bilan to'ldirilishi hamda uning matnda pragmatik vazifa bajarish uchun xizmat qilishi haqida aytib o'tgan [Хакимов, 2013: 43]. M.Mamajonov o'z tadqiqotida antroponimlarni diskursdagi relevantlik va uslubiy-funksional xususiyatlarini tavsiflaydi. Antroponimik indikatorlar, dialogik diskursda antroponimlarning kommunikativ-funksional xususiyatlari haqida va ularning tilda vokativ, aksiologik, ekspressiv, affektiv, diskurssiv, semiotik, atash va farqlash funktsiyalarining mavjudligini keltirib o'tgan [Мамажонов, 2020: 23].

Yuqorida sanab o'tilgan jahon va o'zbek tilshunosligida qilingan tadqiqotlarda antroponimlarning lingvopragmatik imkoniyatga ega birliklar ekanligini dalillovchi faktlar mavjudligini inobatga olgan holda antroponimlar va ular tarkibida o'rganiluvchi zamonaviy nomlar(nikneymlar)ning lingvopragmatik aspektda tahlil qilish va tildagi imkoniyatlarini tadqiq qilish zarur.

Adabiyotlar:

1. Бойкова Т. А. Личное имя как объект языковой рефлексии: на материале метаязыковых высказываний русских и американцев: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 – сравнительно-историческое, типологическое сопоставительное языкознание. – М., 2017. – 182 с
2. Гарагуля С. И. Антропонимическая прагматика и идентичность индивида: опыт системного описания личных имен в США: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.04. – М., 2009. – 418 с.
3. Мамажонов М. Ю. Антропонимлар дискурси релеванти сифатида: филол. фан. ф. д. (PhD) диссертациясининг автореферати. – Фаргона: Фаргона давлат университети, 2020. – 23 б.
4. Москаленко Е. А. Функционально-прагматические особенности неофициальных именованных лиц: на материале английского и русского языков: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 – теория языка. – Ставрополь, 2012. – 188 с.
5. Нестерова Т. В. Прагматика обращений-антропонимов в семейной сфере : дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 395 с.



6. Ражина В. А. Ономастические реалии: лингвокультурологический и прагматический аспекты: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 – теория языка. – Краснодар, 2007. – 19 с.
7. Рубцова Е. Ю. Прагматическое содержание антропонимов: на материале русского и английского языков: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 – теория языка. – Ростов-на-Дону, 2006. – 151 с.
8. Врублевская О. В. Языковая мода в русской ономастике: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 – русский язык. – Волгоград: ФГБОУ ВО «Волгоградский государственный социально-педагогический университет», 2017. – 430 с.
9. Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 43 б.
10. Худайберганава Д. С. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 91 б.
21. Vlakhov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. – Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1980. – 8 p.
22. Abdugafurovna K. S., Abdugafurovna K. O. Some Considerations in Teaching Uzbek Language Grammar //International Journal on Integrated Education. – 2020. – Т. 3. – №. 9. – С. 165-168.
23. Mavlyanov, S. (2023). O ‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
24. Muhammadiyeva, D. TARJIMA MATNLARDA FRAZEMALARNING PROYEKSIYASI PROJECTION OF PHRASES IN TRANSLATED TEXTS. O ‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI.
25. Shamsieva Manzura Bababekovna. (2025). COGNITOTYPES OF LANDSCAPES IN THE EPIC “LISON UT-TAYR” BY ALISHER NAVOI. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 12(02). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/2580>
26. Vafo, Muhayyo - Orazova, Iqbol. “ALİ ŞÎR NEVÂÎ’NİN “LEYLİ VE MECNUN” MESNEVİSİNDE DİNÎ TASAVVURLARIN ‘CAN’ MERKEZLİ DEYİMLERİN OLUŞUMUNA ETKİSİ”. *Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi*. 115 (September 1, 2025): 601-614. <https://doi.org/10.60163/tkhcbva.1614109>.
27. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyeva, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.
28. K M. Thematic groups of lexical units in "Kutadgu bilig" Open Access journal of Science. MedCrave. 2 (Issue 2), P146-148